

LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQOTLAR VA ULARNING NAZARIY ASOSLARI

Sattorova Umidaxon Uktam qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Filologiya fakulteti til va adabiyot yo'nalishi
4.24-guruh 2-kurs talabasi
Tel raqam: +998883890018

Annotatsiya: Ushbu maqolada lingvokulturologik tadqiqotlar, ularda qo'llaniladigan metodlar – semantik, konseptual va qiyosiy tahlil usullari yoritiladi. Shu bilan bir qatorda, lingvokulturologik tadqiqotlarning nazariy asoslari va tadqiqot natijalari til orqali milliy madaniyatni chuqur anglash va uni saqlashda lingvokulturologiyaning muhim ahamiyatga ega ekanligi ham ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: lingvomadaniyat, etnolingvistika, tadqiqot metodlari, madaniy semantika, tahlil usullari, lingvokulturologik tadqiqotlar, kommunikatsiya.

Аннотация: В данной статье рассматриваются лингвокультурологи ческие исследования, используемые в них методы – семантический, концептуальный и сравнительный анализ. Одновременно с этим, теоритическое основы лингвокультурологи ческих исследований демонстрируют важную роль лингвокультурологи и в понимании и сохранении национальной культуры.

Ключевые слова: лингвокультура, этнолингвистика, методы исследования, культурная семантика, методы анализа, лингвокультурные исследования, коммуникация.

Annotation: This article discusses linguoculturological research, the methods used in it- semntic, conceptual and comparative analysis. At the same time, the thereotical foundations of linguoculturological research and the results of the research show the important role of linguoculturology in understanding and preserving national culture through language.

Key words: linguoculture, ethnolinguistics, research methods, cultural semantics, analysis methods, linguocultural research, communication.

Lingvokulturologiya – til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni o'rganuvchi zamonaviy tilshunoslikning yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Lingvomadaniyatshunoslik tilshunoslikning mustaqil yo'nalishi sifatida XX asrning 90-yillarida vujudga kelgan. Tadqiqotchilarning qayd qilishicha, "lingvokulturologiya" (lot. **lingua** – til; **cultus** – hurmat qilish, ta'zim qilish; yunon. "ilm, fan") termini V.N.Teliya rahbarligidagi Moskva frazeologik maktabi (Yu.S.Stepanov, A.D.Arutyunova, V.V.Vorobyev, V.Shaklein, V.A.Maslova)

tomonidan olib borilgan izlanishlar bilan bog'liq ravishda paydo bo'lgan¹. Lingvomadaniyatshunoslik sohasida ham ko'plab olimlar izlanish olib borishgan, bulardan V.V.Vorobevning yozishicha, "bugungi kunda lingvomadaniyatshunoslikni muayyan yo'l bilan saralangan madaniy qadriyatlar majmuyini o'rganadigan, nutqni yaratish va uni idrok qilishdagi jonli kommunikativ jarayonlarni, lisoniy shaxs tajribasini va milliy mentalitetni tadqiq etadigan, olam manzarasining lisoniy tasvirini tizimli ravishda beradigan yangi filologik fandır"² deb ta'rif bergan. V.N.Teliyaga ko'ra, lingvomadaniyatshunoslik, avvalo, jonli kommunikativ jarayonlarni va ularda qo'llaniladigan til ifodalarining sinxron harakatdagi xalq mentalitetini bilan aloqasini tadqiq qiladi. N. Alefirenko lingvomadaniyatshunoslikni quyidagicha tavsiflaydi:

-Lingvomadaniyatshunoslik tilshunoslik va madaniyatshunoslik bilacn chambarchas bog'langan bo'lib, u sintezlovchi xususiyatga ega;

-Lingvomadaniyatshunoslikning asosiy e'tibori tilda izohlanadigan madaniy dalillarga qaratiladi;

-Lingvomadaniyatshunoslik tadqiqotlarining asosiy yo'nalishlari: a) lisoniy shaxs; b) til madaniy qdriyatlarning semiotik gavdalantirish tizimi hisoblanadi³.

O'zbek tilshunosligida lingvomadaniy tadqiqotlar oxirgi o'n yilliklarda paydo bo'la boshladi. Jumladan, Z.I.Soliyevaning nomzodlik ishida o'zbek va ingliz tillaridagi sentensiya, ya'ni axloqiy-ta'limiy xarakterdagi matnlarning milliy-madaniy xususiyatlari yoritilgan⁴. Bunda o'zbek va ingliz tillaridagi sentensiyalar – ya'ni axloqiy-ta'limiy mazmunga ega bo'lgan hikmatli iboralar lingvomadaniy jihatdan tahlil qilingan. Bu orqali har ikki xalqning ma'naviy qadriyatlari, axloqiy qarashlari va hayotiy tajribasi til vositasida qanday ifodalanishi ochib beriladi. Lingvokulturologik tadqiqotlarda, asosan, lingvistik, kulturologik, sotsiologik, etnografik metodlardan istifoda etilganligini ko'rish mumkin. Maslovaning yozishicha, "Har qanday ilmiy tadqiqotning aniq metodi o'zining qo'llanish chegarasiga ega. Biroq o'zaro aloqada bo'lgan til va madaniyat shunchalik ko'p qirraliki, ularning tabiati, funksiyalari va genezisini bir metod vositasida bilish mumkin emas. Shuning uchun ham bu sohada bir-birini to'ldiruvchi qator metodlarning qo'llanilishi g'oyat tabiiydir"⁵. Aksariyat lingvokulturologik tadqiqotlarda mazkur metodlar turli tamoyillar va tahlillar bilan bir-birini o'zaro to'ldirib, lingvomadaniyatshunoslikka murakkab obyekt bo'lgan til va

¹ Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. –М.: Школа "Языки русской культуры", 1996. -286 с.

² Воробьев В. В. О статусе лингвокультурология // IX Международный Конгресс МАПРЯЛ. Русский язык, литература и культура на рубеже веков. Т. 2. –Братислава, 1999. –С. 125-126. Батафсил маълумот учун каранг: Воробьев В. В. Лингвокультурология. Теория и методы. –М.: Изд-во РУДН, 1997.

³ Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. Учебное пособие. – М.: Флинта, Наука, 2010. – С. 21.

⁴ Салиева З.И. Концептуальная значимость и национально-культурная специфика сентенции в английском и узбекском языках: Афтореф. дисс...канд.филол.наук. –Ташкент, 2010. –С.25.

⁵ Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. Пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Издательский центр "Академия", 2001. – С.34.

madaniyatning o'zaro munosabatini tadqiq etish imkonini berganligi ta'kidlanadi. Til va madaniyatning o'zaro munosabatini o'rganish uchun J.Lakoff metaforalarni tahlil qilish apparatini taklif qiladi. Chunonchi, metaforalarning kognitiv nazariyasi nima uchun chet tillaridagi ba'zi iboralar oson tushuniladi, hatto ular o'zlashtiriladi, boshqalarini esa tushunish qiyin ekanligini izohlab beradi. Ushbu metod qiyoslanayotgan tillar orasidagi kognitiv nomuvofiqlikni aniqlashga yordam beradi. Bunday farqlar tasodifiy bo'lmaydi, ular u yoki bu xalq tomonidan dunyo hodisalarini o'ziga xos tarzda tushunilishidan dalolat beradi. Lingvokulturologik tadqiqotlar, asosan, konsept tahlili, frazeologik birliklar tahlili, qiyosiy tadqiqotlar tahlili, diskurs tahlil kabi yo'nalishlarda olib boriladi.

1. Konsept tahlili – XX asrning birinchi choragida konsept haqida mulohazalarga tanqidiy yondashiladi. Yu.S.Stepanov o'zining tadqiqotlarida mental shakllanishining mohiyatini ochishga harakat qilib, “konsept” so'zining etimologiyasiga muroaat qiladi. Konsept ikki tomonli xususiyatiga egadir. Bir tomondan, madaniyat konsept ko'rinishida insonning mental dunyosiga kirsa, boshq tomondan, inson konsept yordamida madaniyatga kiradi va ba'zan unga ta'sir ko'rsatadi. Inson o'zining individual, betakror madaniyatini turli millat vakillarining mental dunyosiga muroajaat qiladi⁶.

2. Frazeologik birliklar tahlili – Frazeologizmlarda muayyan xalqning miflari, udumlari, rivoyatlari, taomillari, urf-odatlar, ma'naviyati, axloqi haqidagi tasavvurlari mujaassamlashgan bo'ladi. Masalan, *ko'rpasiga qarab oyoq uzatmoq* “imkoniyatini hisobga olib ish tutmoq”, *tanobini tortmoq* “faoliyat doirasini, imkoniyatini cheklab qo'yimoq” kabi misollar shular jumlasidandir.

3. Diskurs tahlili – bu til birliklarini faqat grammatik yoki leksik jihatdan emas, balki ijtimoiy, madaniy va kognitiv kontekstda o'rganadigan ilmiy yo'nalishdir. Teun A.van Dijk “Discourse and Context”⁷ asarida bu tahlilni 3 asosiy komponent orqali tushuntiradi: diskurs, kognitsiya, jamiyat v bu uchalasi sotsiokognitiv model deb ataladi.

Shu yo'nalishdagi tadqiqotchilardan yan biri Sh.Usmanovning “Lingvomadaniyatshunoslik” kitobida lingvokulturologik tadqiqotlarda, asosan, quyidagi masalalarni tadqiq etilganini ko'rish mumkin: 1) muayyan nutq janrning lingvokulturologik xususiyatlari. Bunda miflar, xalq og'zaki ijodiga xos janrlar tili o'rganilgan; 2) muayyan uslubda yozilgan asardagi lingvomadaniy konseptning ifodalanishi tadqiqi. Bunda asosan badiiy-nasriy asarlar tili tahlil etilgan; 3) qiyosiy yo'nalishdagi tadqiqotlar. Bunda ko'proq rus tilidagi birliklar ingliz, nemis, fransuz tillari bilan qiyoslangan; 4) lingvomadaniyatshunoslikning pedagogika fani bilan

⁶ Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры [Текст] / Ю.С.Степанов. – М.: Академический проект 2004. – 991 с.

⁷ Van Dijk T.A. Discourse and Context: A Sociocognitive Approach. – Cambridge University Press, 2008.

bog'liq jihatlari. Bunda ijtimoiy fanlarda o'quvchi va talabalarga lingvokulturologik birliklarni aniqlash va tahlil etish maqsad qilib olingan⁸. Lingvomdaniyatshunoslikda bugungi kunga qadar bir qancha yo'nalishlar shakllangan:

1. Muayyan ijtimoiy guruhlar, xalqning ko'zga ko'ringan davrdagi madaniy munosabatlari lingvomadaniyatshunosligi, ya'ni aniq lingvomadaniy holatlarning tadqiq etilishi.
2. Xalqning muayyan davriga tegishli bo'lgan lingvomadaniy o'zgarishlarni o'rganadigan diaxronik lingvomadaniyatshunoslik.
3. O'zaro aloqda bo'lgan turli xalqlarning lingvomadaniy ko'rinishlarini tadqiq qildigan qiyosiy lingvomadaniyatshunoslik.
4. Chog'ishtirma lingvomadaniyatshunoslik. U endi rivojlanishga boshlagan bo'lib, ayrim tadqiqotlarda o'z aksini topgan. Masalan, M.K. Golovanivskya "Rus tili sohibi nuqtayi nazaridan fransuz mentaliteti" nomli tadqiqotida fransuz mentaliteti xususiyatlarini rus tili va madaniyati sohibining nuqtayi nazaridan o'rgangan. Tahlil materialini sifatida va fransuz tillaridagi taqdir, xavf, omad, jon, vijdon, fikr, g'oya va mavhum otlar xizmat qilgan.

Lingvokulturologiyaning shakllanishi va rivojida rus tilshunos olimlari muhim o'rin tutgan. Yuqorida aytganimizdek, V.N.Teliya lingvokulturologiyani jonli nutq jarayonlari va ularda aks etdigan milliy-madaniy mazmuni o'rganuvchi fan sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, til birliklari xalq mentaliteti bilan bevosita bog'liq bo'lib, ular orqali milliy ong ifodalanadi. N.Alefrenko lingvokulturologiyani tilshunoslik va madaniyatshunoslik kesishgan nuqtada shakllangan integrativ fan deb ta'riflaydi. Maslova esa har qanday ilmiy tadqiqotning aniq metodi o'zining qo'llanish chegarasiga ega. Biroq o'zaro aloqada bo'lgan til va madaniyat shunchalik ko'p qirraliki, ularning tabiati, funksiyalari va genezisini bir metod vositasida bilish mumkin emas. Shuning uchun ham bu sohada bir-birini to'ldiruvchi qator metodlarning qo'llanilishi tabiiy holatdir degan fikr bildirgan.

Xulosa o'rnida, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, so'z va iboralar, lingvokulturologik birliklar milliy xususiyatlarni saqlab qoladi va mdaniy identifikatsiyani shakllantiradi. Nazariy asoslar, jumladan konseptual tahlil, semantik tahlil, qiyosiy tahlil va Teun A.van Djik asarida keltirilgan diskurs tahlil va usullar lingvokulturologik tadqiqotlarning mustahkam ilmiy poydevorini yaratadi. Shu bilan birga, bu tadqiqotlar til orqali milliy ongni anglash, madaniy merosni saqlash va xalqaro kommunikatsiyada madaniy tafovutlarni tushunishda katta ahamiyat kasb etadi.

⁸ Lingvomadaniyatshunoslik [Matn]: darslik/ Sh.Usmanova – Toshkent: Bookmany print, 2022. – 286 b.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. Учебное пособие. – М.: Флинта, Наука, 2010. – С. 21.
2. Воробьев В. В. О статусе лингвокультурология // IX Международный Конгресс МАПРЯЛ. Русский язык, литература и культура на рубеже веков. Т. 2. –Братислава, 1999. –С. 125-126. Батафсил маълумот учун қаранг: Воробьев В. В. Лингвокультурология. Теория и методы. –М.: Изд-во РУДН, 1997.
3. Lingvomadaniyatshunoslik [Matn]: darslik/ Sh.Usmanova – Toshkent: Bookmany print, 2022. – 286 b.
4. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. Пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Издательский центр “Академия”, 2001. – С.34.
5. Салиева З.И. Концептуальная значимость и национально-культурная специфика сентенции в английском и узбекском языках: Афтореф. дисс...канд.филол.наук. –Ташкент, 2010. –С.25.
6. Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры [Текст] / Ю.С.Степанов. – М.: Академический проектб 2004. – 991 с.
7. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. –М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996. -286 с.
8. Van Dijk T.A. Discourse and Context: A Sociocognitive Approach. – Cambridge University Press, 2008.